

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

BO‘RIBOYEV DONIYOR BAXTIYOR O‘G‘LI

**HARBIY XIZMATDAGI KURSANTLARNING JISMONIY VA JANGOVOR
TAYYORGARLIK HOLATINI SAMBO VOSITALARI ORQALI
OSHIRISH USLUBIYATI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Bo‘riboyev Doniyor Baxtiyor o‘g‘li

Harbiy xizmatdagi kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish uslubiyati.....5

Бурибоев Дониёр Бахтиёр угли

Методика повышения состояния физической и боевой подготовки военнослужащих курсантов с помощью средств самбо31

Buriboyev Doniyor Bakhtiyor ugli

Methodology for improving the physical and combat training of military cadets using sambo means.....60

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....64

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

BO‘RIBOYEV DONIYOR BAXTIYOR O‘G‘LI

**HARBIY XIZMATDAGI KURSANTLARNING JISMONIY VA JANGOVOR
TAYYORGARLIK HOLATINI SAMBO VOSITALARI ORQALI
OSHIRISH USLUBIYATI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PHD/Ped1844 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifaning www.uzdjtsu.uz va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Gapparov Xafiz Zaxidovich

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

To‘xtaboyev Nizomjon Tursunaliyevich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Nurimov Zafar Raxmonberdiyevich

pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “__” _____ soat ___—dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurgchilar ko‘chasi, B uy. Tel.:(0-370)-717-17 79,717-27-27, faks(0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Madaniyat saroyi 2-qavat Konferensiyalar zali.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (211352 – raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurgchilar ko‘chasi, 19- uy).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “__” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “__” _____dagi ___ - raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Kerimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

X.X.Qurbonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda harbiy kursantlarning jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligini, jangovor holatini va psixologik holatini sport vositalari orqali rivojlantirish hamda sambo kurash usullarini mashg'ulotlarda qo'llash samaradorligi ortib bormoqda. Ko'plab mamlakatlarda kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish, sportchilarni tayyorlash tizimini zamon talablariga moslashtirish yuzasidan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda, sambo sport turini yanada rivojlantirish, kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish tizimini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sambo texnik usullari jangovar harakatlarning kasbiy-pedagogik malakasini takomillashtirish va umumlashtirish yuzasidan ilmiy ishlar olib borilmoqda. Asosiy e'tibor sambo texnikasini o'rgatish hamda, turli xil malakaga ega harbiy xizmatchi va sportchilar tayyorgarligini boshqarish xususiyatlarini bayon qilishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yoshlarni Qurolli kuchlar safida xizmat qilishga va kelgusida harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga muvaffaqiyatli tayyorlash maqsadida jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan ko'pgina ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Harbiy o'quv yurtlarida jismoniy tayyorgarlik samaradorligini belgilab beruvchi jismoniy tarbiyaning nazariy va tashkiliy asoslari, harbiylarning jismoniy va jangovor tayyorgarligi bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlarni kiritish, jismoniy va jangovor tayyorgarligini yo'lga qo'yish masalalari bilan bog'liq muammolarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmaganligi dolzarbligicha qolmoqda.

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining mudofaa salohiyatini mustahkamlash, ayniqsa, harbiy xizmatni o'tayotgan askar va zobitlarning jismoniy va jangovor tayyorgarligini kuchaytirish hamda takomillashtirish jarayonlari ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. «Men harbiy xizmatchilarimizning jismoniy va ruhiy tayyorgarligi bilan bog'liq bir qator muammolarga e'tibor qaratmoqchiman. Nega deganda, jismoniy tayyorgarlik harbiy xizmatchilar uchun xizmat faoliyatida, harbiy karyerasida va umuman, turmush tarzida hal qiluvchi omillardan biri bo'lishi kerak».¹ Ta'lim jarayoni mazmunini mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb vazifalariga mos holda tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro andozalarga javob beruvchi zarur shart-sharoitlarni yaratish vazifalaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizdagi harbiy bilim yurtlari faoliyatini ham tubdan o'zgartirish, ularning bitiruvchilarini ham jismonan va ham manan yetuk kadr qilib tayyorlash oliy harbiy bilim yurtining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda harbiy oliy o'quv yurtidagi o'quv jarayoni vazifalarini hal etishga yordam berish maqsadida harbiy xizmatchilarining xizmat-jangovar faoliyatida zarur bo'lgan texnik va taktik harakatlar tizimlashtirilishi ilmiy dolzarbligini tashkil etadi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 11-yanvardagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi "Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir" nutqi.

O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi O‘RQ-394-son “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 15-apreldagi PQ-5077-son “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda sport kurashi turlarida hamda harbiy xizmatdagi kursant sportchilarning-yillik tayyorgarlik bosqichlarini yaxshilash borasida zamonaviy nazariy va amaliy ilmiy asoslangan usullar ishlab chiqilmoqda va amaliyotga joriy etishda keng qo‘llanilib kelmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan barcha tadqiqotlar sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, olimlardan A.A.Ruziyev, A.N.Abdiyev, F.A.Kerimov, F.M.Pulatov, Z.A.Bakiyev, I.B.Aliyev, R.D.Xalmuxamedov, E.I.Bayturayev, N.A.Tastanov, Sh.S.Tursunov, X.Z.Gapparov, Sh.Sh.Gaziyev, D.Y.Tashnazarov, E.T.Raxmanovlar o‘zlarining ilmiy-uslubiy ishlarida sportchilarning tayyorgarligini optimallashtirish va rejalashtirish uslubiyatini ishlab chiqqanlar va turli takliflar berishgan.²

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari yetakchi olimlari va mutaxassislarining ilmiy-uslubiy adabiyotlarini o‘rganish natijasida sportchilarning tayyorgarlik bosqichlarida harbiy xizmatdagi kursantlarga sport kurash turlarini o‘rgatish

² Рузиев А.А. Проблемы повышения специальной выносливости высококвалифицированных борцов //Теория и практика физической культуры. -№8.-Москва:-2001.-Б. 37-38.; Абдиев А.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений тренера у студентов, специализирующихся в видах спортивных единоборств: Автореф. Дис... д-ра. пед. наук.-Т., 2004.- Б. 22-26.; Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти / -Тошкент: ЎзДЖТИ. Нашриёт бўлими, 2005.-Б. 240-245.; Саламов Р.С. Спорт машғулотлари назарияси ва асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент -2005.-Б. 67-70.; Пулатов Ф.М. - Борба самбо. Учебник //-Т.УзГИФК, 2005.-360 с.; Бакиев З.А. Индивидуализация технико - тактической подготовки борцов, на основе автоматизированного анализа соревновательной деятельности // кандидата Педагогических наук: дисс...автореф., ВАК ЎзР 13.00.04., Ташкент. УзГИФК. 2009. – С. 21-38.; Алиев И.Б. Кураш билан шуғулланувчи талаба спортчиларни машғулот юкламаларининг оптимал нисбатлари // Педагогика фанлари номзоди: дисс...автореф., ОАК ЎзР 13.00.04., Тошкент. ЎзДЖТИ. 2012.–Б. 19-28.; Холмухаммедов Р.Д., Шин В.Н. Ёш яккакурашчилар кўп йиллик тайёргарлик жараёнининг турли босқичларида саралашнинг меёрлари. Ўқув-усlubий қўлланма. Тошкент ЎзДЖТИ. 2013.– 158 б.; Bayturaev E.I. – Sambo kurashi nazariyasi va uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. “Tamaddum” Toshkent 2016. – 279 b.; Tastanov N.A. Кураш турлари назарияси ва услубияти / Дарслик. “Sano-standart” Тошкент:-2017.-Б. 193-205.; Байтураев Э.И., - Повышение спортивно-педагогического мастерства (Самбо). Учебник. “ODIL - PRINT” Тошкент. 2019. – 375 с.; Турсунов Ш.С. Юнон-рим курашчиларнинг техник-тактик тайёргарлигини такомиллаштириш. // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори: дисс...автореф., ОАК ЎзР 13.00.04., Чирчик. ЎзДЖТСУ. 2019.– 120 б.; Gapparov X.Z. – Jangovor jismoniy tayyorgarlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: IV TONTVYu. 2016.- 235 b.; Gapparov X.Z. – Qo‘l jangi: maxsus usullar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: MG HTI. 2020.- 235 b.; Газиев, Ш. Ш. "Повышение спортивного педагогического мастерства (по самбо).“ Учебник." FIRDAVS-SHON” Toshkent-2021. – 320 с.; Ташназаров Дж.Ю. – Бошланғич гуруҳ юнон-рум курашчиларини техник усулларга ўргатишда моделлаштиришнинг самарадорлигини такомиллаштириш. // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори: дисс...PhD., ОАК ЎзР 13.00.04., Чирчик. ЎзДЖТСУ. 2021.– 186 б.; Рахмонов Э.Т. Малакали юнон-рим курашчиларининг комбинацион хужум ҳаракатларини такомиллаштириш услубияти // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори: дисс... PhD., ОАК ЎзР 13.00.04., Чирчик. ЎзДЖТСУ. 2022. – 139 б.;

masalalari bo'yicha L.P.Matveyev, V.A.Pankov, A.A.Karelin, V.N.Platonov A.A.Klepikova, Yu.V.Verxoshanskiy, K.M.Berulova va boshqa bir qator olimlarning ilmiy izlanishlarida harbiy xizmatdagi kursantlar va sport kurashi turlari bilan shug'ullanuvchilarning mashg'ulotlarida yuklamalarni va tayyorgarlik bosqichlarini to'g'ri rejalashtirish borasidagi fikrlar ilgari surilgan.³

Jahonning rivojlangan davlatlarining olimlari D.W.Farenholtz, E.C.Rhodes, T.Suminski, G.S.Anderson tomonidan harbiy xizmatdagi kursantlar tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarishi vaqtida, ularining jismoniy va jangovor tayyorgarligi holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan⁴. Ushbu mualliflar tomonidan harbiy xizmatdagi kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik ko'rsatkichlari har tomonlama ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotlar doirasida mutlaq ko'rsatkichlar, o'zgarishlarning yoshga xos dinamikasi, shuningdek, jismoniy sifatlar ko'rsatkichlari yoki ularning xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan testlarning gender nisbati aniqlangan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarning asosiy kamchiligi Milliy Gvardiyaning ta'lim muassasalari kursantlarining kasbiy-amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan jarayonlarda zamonaviy pedagogik innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligidir.

O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya Jamoat xavfsizligi universitetida kadrlarni tayyorlashga qo'yilayotgan yangi talab va o'zgarishlarni hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish uchun xodimlarining kasbiy layoqatini o'rganish mezonlari hamda kursantlarning harakat qobiliyatlarini aniqlash va baholash me'yorlari asosida kasbiy-amaliy tayyorgarlik texnologiyasini zamonaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqish zarurligi asoslandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq V.1/36 "Sambo kurash turi bo'yicha mashg'ulot jarayonlarini maxsus jismoniy sifatlar yordamida takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sambo vositalari orqali kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarligini oshirishda mashg'ulot yuklamalari hajmini optimallashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

³ Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры: Учебник /.: Физкультура и спорт, 1991.-542 б.; Панков В.А. Современные технологии комплексного применения восстановительных средств в подготовке борцов (юниоров) греко-римского стиля: Автореф. дис... канд. пед. наук. -М.,2000.-С.22-25.; Карелин А.А. Спортивная подготовка борцов высокой квалификации / Учебник. «Спорт»-Новосибирск:-2002.- Б. 471-479.; Платонов В.Н. - Система подготовки спортсменов в Олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. Киев, Олимпийская литература, 2004.- 808 с.; Клепикова А.А – Социальное конструирование отклонений в развитии в системе специальных интернатных учреждений кандидат социологических наук: диссертация., ВАК 22.00.04., Санкт-петербург. 2014.- 95 с.; Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. М.: Физкультура и спорт, 2007.- 331 с.; Жалилов А.В. Организация и методика занятий борьбой самбо с глухими подростками 12-14 лет в условиях коррекционной школы-интерната // кандидат наук диссертация., ВАК РФ 13.00.04., М.: 2019.- 185 с.; Берулова К.М Структура и содержание комплексной подготовки высококвалифицированных борцов вольного стиля с нарушением слуха на основе учета индивидуальных особенностей // кандидат наук диссертация., ВАК РФ 13.00.04., М.: 2020.- 150 с.

⁴ Farenholtz D.W. Recommended Canadian standards for police physical abilities / D.W. Farenholtz, E.C. Rhodes // Canadian Police College Journal. – 1990. – No. 1 (14). – P. 37-49.; Rhodes E.C. Police officers physical abilities test compared to measures of physical fitness / E.C. Rhodes, D.W. Farenholtz // Canadian Journal of Sport Science. – 1992. – No. 3 (17). – P. 228-233.; Suminski, T. Physical fitness and law enforcement, Roseville police department / T. Suminski. – Michigan : Eastern Michigan University, 2006. – 25 p.; Anderson, G.S. Physical Abilities Requirement Evaluation (PARE). Discrete Item Analysis. Phase 2 / G.S. Anderson, D.B. Plecas. – Vancouver : University of the Fraser Valley, 2008. – 54 p.

Tadqiqotning vazifalari:

kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini darajasi, ularning mashg'ulot vositalari va yuklamalari hajmini aniqlash;

kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini oshirish uchun mashg'ulotlarda qo'llaniladigan sambo vositalarini yo'nalishi bo'yicha tabaqalashtirish asosida mashg'ulot dasturini ishlab chiqish;

kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini oshirishda sambo vositalari yuklamalarining optimal nisbatlarini tajribada isbotlash;

kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali ilmiy asoslangan model ko'rsatkichlarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlarining jismoniy va jangovor tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan mashg'ulot jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlarining jismoniy va jangovor tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan mashg'ulot jarayonlaridagi yuklamalarning hajmi va sambo texnik usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, anketa so'rovnomasi, ekspert baholash, pulsometriya, pedagogik tajriba, matematik-statistika kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy harbiy ta'lim muassalari kursantlarning o'tish va tayyorgarlik davrlarida tezkor, portlovchi-kuch qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan-yillik o'quv yuklamasini davrlar kesimida sambo maxsus mashqlarini jangovor mashg'ulotlarda jismoniy yuklama shiddatini keskin (keskin vaziyatlarga tezkor moslashish uchun) oshirib borish hisobiga texnik usullarga o'rgatish imkoniyatlari kengaytirilgan;

oliy harbiy ta'lim muassalari kursantlarning tayyorgarligini oshirish imkoniyatlari tayyorgarlik mezosiklida sambo sport turining qisqa vaqt ichida texnik harakatlarni takrorlash sonini oshirishga qaratilgan qo'l va oyoqlarga og'riq berish usullarini o'zgaruvchan sharoitlarda bajarish hisobiga takomillashtirilgan;

oliy harbiy ta'lim muassalari kursantlarning sambo kurashi texnik usullariga o'rgatish uchun tik turgan va parter holatida hujum harakatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus mashqlarni kichik, o'rta va yuqori shiddat darajasi bo'yicha kombinatsiyalashtirilgan shakllarini mashg'ulotlarga kiritish hisobiga jangovor tayyorgarlik imkoniyatlari oshirilgan;

oliy harbiy ta'lim muassalari kursantlari bilan olib boriladigan sambo kurashi mashg'ulotlarida jinoyatchi (raqib)ni sovuq qurol bilan hujum qilganda (yuqoridan va yon tomondan himoyalaniish kabi) usullarni tez va o'rta shiddat zonalari bo'yicha optimal rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni kiritish hisobiga jangovor tayyorgarlikni baholash imkoniyati takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat.

Kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish bo'yicha mashg'ulotlarini samarali tashkillashtirish uchun vositalarning optimal nisbatlari aniqlangan va amaliyotda qo'llash uchun metodika ishlab chiqilgan;

jismoniy tayyorgarlik jarayonida kursantlarning jangovor tayyorgarlik natijalarini oshirish maqsadida mashg'ulotlarda sambo vositalarini bajarishga yuqori maxsuslashgan mashg'ulot vositalari variantlari ishlab chiqilgan;

kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari va yuklamalarini taqsimlashning samarali usulidan foydalanishga doir tavsiyalar asosida kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirishning to'laqonli o'tkazish dasturi va model ko'rsatkichlar takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlardan olingan natijalarning ishonchliligi nazariy va uslubiy baza, ilmiy tadqiqotning mantiqiy ketma-ketligi, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyati sohasidagi vatanimiz va chet el olimlari, shuningdek, amaliyotchi trenerlarning fikr-mulohazalariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi, olingan natijalarni matematikstatistik tahlil qilish uslublari yordamida qayta ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirishning mashg'ulot vositalari va yuklamalari hajmining optimal nisbatlari belgilab berilgan va mashg'ulot dasturi ishlab chiqilgan. Tadqiqotlar davomida olingan materiallar kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish nazariyasi va uslubiyati sohasidagi nazariy bilimlarni boyitishga va kengaytirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish uchun tayyorgarlik darajasini bajarish bo'yicha model ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan. Kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirishning mashg'ulot vositalari yuklamalarini optimal nisbatlari va model ko'rsatkichlari kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish orqali jismoniy va jangovor tayyorgarlik jarayonining samaradorligini oshirishga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirishning mashg'ulot vositalari va yuklamalari hajmini optimallashtirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

oliy harbiy ta'lim muassalari kursantlarning o'tish va tayyorgarlik davrlarida tezkor, portlovchi-kuch qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan-yillik o'quv yuklamasini davrlar kesimida sambo maxsus mashqlarini jangovor mashg'ulotlarda qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida tahsil oluvchi kursantlarning o'quv-mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 31-oktabrdagi 03-01/04/20/11516-son ma'lumotnomasi). Natijada, kursantlarning jismoniy tayyorgarligi 17,3% ga va jangovor tayyorgarligi 19,2% ga yaxshilangan;

oliy harbiy ta'lim muassalari kursantlarning tayyorgarligini oshirish imkoniyatlari tayyorgarlik mezosiklida sambo sport turining qisqa vaqt ichida texnik harakatlarni takrorlash sonini oshirishga qaratilgan qo'l va oyoqlarga og'riq berish usullarini o'zgaruvchan sharoitlarda bajarish uslubiyati "Sambo kurashi usullari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 27-dekabrda 1186-sonli buyrug'iga asosan 1186-049 raqamli guvohnomasi). Natijada, kursantlarning texnik harakatlarni bajarish samaradorligi 17% ga yaxshilangan;

kursantlarni sambo kurashining texnik usullariga o'rgatish uchun mashqlar nisbati va shiddatiga ko'ra tik turgan holatda yiqitish harakatlarini oshirishga qaratilgan maxsus usullar "Sambo kurashi usullari nomi" o'quv-qo'llanmasining mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 27-dekabrda 1186-sonli buyrug'iga asosan 1186-049 raqamli guvohnoma). Natijada, kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish maqsadida amaliyotiga joriy etilgan uslubiyat va mashqlar majmuasi kursantlarning tayyorgarligiga samarali ta'sir ko'rsatgan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari bilan olib boriladigan sambo kurashi mashg'ulotlarida jinoyatchi (raqib)ni sovuq qurol bilan hujum qilganda (yuqoridan va yon tomondan himoyalani kabi) usullarni tez va o'rta shiddat zonalari bo'yicha optimal rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni o'quv-mashg'ulotlari jarayoniga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 31-oktabrda 03-01/04/20/11516-son ma'lumotnomasi). Natijada, kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarligi 12% ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarida 4 ta maqola (3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bobdan iborat bo'lib, --- sahifali matn, 2 ta rasm, 15 ta jadval, xotima, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi, dissertatsiyada ko'tarilgan muammoning o'rganilganlik holati, dissertatsiya mavzusini dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, uslublari, ilmiy yangiligi, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi va ularni e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini oshirishda sambo vositalarining o‘rganilganlik holati va uning metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini oshirishda sambo vositalarining o‘rganilganlik holati va uning metodologik asoslari tahlil etilgan manbalardan ma’lum bo‘ldiki, kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish bosqichining mashg‘ulot vositalari va yuklamalarini optimal nisbatlari alohida ko‘rib chiqilmagan, umumiy tarzda keltirilgan va amaliyotga tavsiya etilgan.

Shundan kelib chiqqan holda, kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish bosqichining mashg‘ulot vositalari va yuklamalarini optimal nisbatlarini aniqlash va mashg‘ulotlarda yangicha qo‘llash usullari tajribada o‘rganib chiqilmagan. Xorijiy va yurtimizda chop etilgan adabiyotlarni o‘rganish natijasida mashg‘ulot vositalari va yuklamalarini optimal nisbatlarini ishlab chiqish usullari bir-birlaridan farqi yo‘qligi aniqlandi (A.N.Abdiyev, F.M.Pulatov, V.N.Platonov, A.V.Rodionov, V.M.Igumenov, Yu.A.Shulika).

Hozirgi kunda kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish bosqichining mashg‘ulot vositalari va yuklamalari muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular, barcha sport turlarida jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligi malaka va ko‘nikmalarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish bosqichining mashg‘ulot vositalari va yuklamalarini optimal nisbatlarini mashg‘ulot jarayonida to‘g‘ri qo‘llash kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish guruhiga shikast va jarohatlarsiz sog‘-salomat o‘tishlariga xizmat qiladi.

O‘rganilgan adabiyotlarga muvofiq, kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish sportchilarning mashg‘ulot vositalari va yuklamalarini optimal nisbatlari dasturi shakllantiriladi. Tavsiya etilgan dastur asosida mashg‘ulot vositalari va yuklamalar hajmi bir me‘yorga keltiriladi va mashg‘ulot samaradorligi oshiriladi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning uslublari va tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, anketa-so‘rovnoma, pedagogik tadqiqotni tashkil qilish, nazorat sinovlari, tadqiqotni amalga oshirish uchun pedagogik tajribalar, ma’lumotlarning statistik tahlili kabi pedagogik tadqiqot usullaridan foydalanilganligi yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti 1-2 bosqich kursantlari, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan dastur bo‘yicha qatnashdilar. Pedagogik tajribagacha sotsiologik tadqiqot o‘tkazilib, unda 20 dan ortiq murabbiylar qatnashdi. Sotsiologik tadqiqotda ishtirok etgan murabbiylar tomonidan aynan kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirishga eng samara beradigan vositalari tanlab olindi.

Kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirishning morfofunktsional ko‘rsatkichlari va jismoniy hamda texnik

tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniqlashdan iborat bo'lgan kengaytirilgan dasturi asosida dastlabki tekshiruvdan o'tkazildi.

Tadqiqotlar uch bosqichda o'tkazildi. I bosqichda (2019-2020 y.y.) – ishchi farazni shakllantirish, tadqiqot obyektini aniqlash, ilmiy tekshirish usullarni tanlash va vazifalarni shakllantirish amalga oshirildi.

II bosqichda (2020-2021 y.y.) – Respublika murabbiylari va O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti kursantlarining jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish bo'yicha anketa-so'rovnoma o'tkazildi.

III bosqichda (2021-2022 y.y.) – asosiy tajriba bosqichida tanlab olingan mashg'ulot vositalari orqali mashg'ulot uslubiyati ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. Tadqiqotda ishtirok etgan kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirishning optimal nisbatlari erishilgan natijalar orqali o'z isbotini topdi.

Dissertatsiyaning “**Harbiy xizmatdagi kursantlarning jismoniy va jangovor tayyorgarlik holatini sambo vositalari orqali oshirish dasturi**” deb nomlangan uchinchi bobida muallif tomonidan sambo kurashining usul va harakatlarini tasniflash asos qilib olingan. Zamonaviy sport natijalari oshib borishi tufayli rivojlantirish vositalarining ilmiy darajasini kuchaytirish orqali harakat hajmini kamaytirish dolzarb muammolardan biri deb qabul qilish maqsadga muvofiq. Shuning uchun ham mashg'ulot vosita va yuklamalarini yangicha mashg'ulotlarda qo'llash yo'llarini izlab topish dolzarb masalalardan biri, deb hisoblanadi.

Harbiy xizmatdagi kursantlarning jismoniy sifat ko'rsatkichlari darajalarini oshirishga qaratilgan maxsus mashqlar asosida tizimlashtirilgan o'quv-mashg'ulot jarayonlarining maqsadi ham sog'lomlashtirish hamda kursantlarni xizmat vazifalarini bajarish vaqtlaridagi o'ta muhim o'rin egallab turuvchi besh sifatni takomillashtirish darajasi kiradi. Shu bilan bir qatorda, jismoniy sifat ko'rsatkichlarini o'sishi, kursantlarning jangovor tayyorgarlik darajalariga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmasligi kunday ravshandir.

1-jadval

Harbiy xizmatdagi kursantlarni mashg'ulot jarayonlariga qo'shimcha maxsus mashqlarni joriy qilish dasturi

| T/r | Vazifalar | 40 haftalik mashg'ulotlarda maxsus mashqlar dasturi | | | | | | | | | | | |
|-----|---|---|----|-----|----|---|--------------|-----|------|--------------------|---|----|-----|
| | | Musobaqa davri | | | | | O'tish davri | | | Tayyorgarlik davri | | | |
| | | I | II | III | IV | V | VI | VII | VIII | IX | X | XI | XII |
| 1. | Joyidan turib yuqoriga vertikal yo'nalishda 5 marta sakrab ikki oyoq bilan debsinib, har sakraganda havoda navbatma-navbat o'ng va chap tomonlarga 180° aylanib, yerga qo'nish. | + | + | + | + | + | - | - | - | - | + | + | + |
| 2. | Qo'llarga tayanib gorizontol holatda qo'llarni bukish-yozish (3 marta 10 sekunddan, oraliq tanaffus 60 sekund). | + | + | + | + | + | - | - | - | - | + | + | + |
| 3. | Maksimal tezlikda 6 marta oldinga 6 marta orqaga akrobatik mashq bajarish. | + | + | + | + | + | - | - | - | - | + | + | + |
| 4. | Gilamga boshni tirab, “kurash ko'priki” holatida o'z o'qi atrofida aylanish. | + | + | + | + | + | - | - | - | - | + | + | + |

1-jadval davomi

| | | | | | | | | | | | | | |
|-----|--|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 5. | O'ng va chap tomonlarga texnik usullarning imitasion harakatlarini bajarish. | + | + | + | + | + | - | - | - | - | + | + | + |
| 6. | Harakatli o'yinlar (raqib oyog'ining uchini bosish, tizzasiga qo'lini tekkizish, ho'roz jangi va b.). | + | + | + | + | + | - | - | - | - | - | + | + |
| 7. | Texnik usullarni sherikning 25%li qarshiligi bilan bajarish (ayni holatda sherik tahminan ¼ darajada qarshilik ko'rsatishi to'g'ri tushuntirilishi shart). | + | + | + | + | + | - | - | - | - | - | + | + |
| 8. | Texnik usullarni sherikning 50%li qarshiligi bilan bajarish (ayni holatda sherik tahminan ½ darajada qarshilik ko'rsatishi to'g'ri tushuntirilishi shart). | + | + | + | + | + | - | - | - | - | - | + | + |
| 9. | Texnik usullarni sherikning 75%li qarshiligi bilan bajarish (ayni holatda sherik tahminan ¾ darajada qarshilik ko'rsatishi to'g'ri tushuntirilishi shart). | + | + | + | + | + | - | - | - | - | - | + | + |
| 10. | Texnik usullarni sherikning 100%li qarshiligi bilan bajarish (ayni holatda sherik to'liq darajada qarshilik ko'rsatishi to'g'ri tushuntirilishi shart). | + | + | + | + | + | - | - | - | - | - | + | + |
| 11. | O'z vazniga teng sherik bilan 5 sekund davomida tezkor texnik usullarni bajarish. | + | + | + | + | + | - | - | - | - | - | - | - |
| 12. | O'z vazniga teng sherikni 6 sekund davomida tezkor texnik usullarni bajarish. | + | + | + | + | + | - | - | - | - | - | - | - |
| 13. | O'z vazniga teng sherik bilan 7 sekund davomida tezkor texnik usullarni bajarish. | + | + | + | + | + | - | - | - | - | - | - | - |
| 14. | Maksimal tezlikda o'z vazniga teng sherik bilan 8 sekund davomida kombinatsiyalarni bajarish. | + | + | + | + | + | - | - | - | - | - | - | - |
| 15. | Harakatli va sport o'yinlarini qo'llash. | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + |
| 16. | Musobaqa mashqlari. | + | + | + | + | + | - | - | - | - | - | - | - |
| 17. | Faol dam olish. | - | - | - | - | - | + | + | + | - | - | - | - |
| 18. | Maxsus jismoniy tayyorgarlik. | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + |
| 19. | Umumiy jismoniy tayyorgarlik. | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + | + |
| 20. | Cho'milish xavzasida 100-110 sm chuqurliqdagi suvda – texnik harakatlarni bajarish, “quvlashmahoq” o'yinini o'ynash, estafeta vazifalarini bajarish. | - | - | - | - | - | + | + | + | - | - | - | - |

Jangovor tayyorgarlik bo'yicha kursantlarda sambo kurash sport turining texnik harakatlariga o'rgatish uchun olib boriladigan samarali texnik usullardan foydalanib tizimlashtirilgan o'quv-mashg'ulot jarayonlarida, kursantlarning rivojlangan jismoniy sifatlarini inobatga olgan holda texnik usullarga o'rgatish, jangovor tayyorgarlik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, biz tomonimizdan olib borilgan ilmiy tadqiqotga 50 nafar kursantlar jalb etilgan, ularning 25 nafari nazorat guruhiga, 25 nafari esa tajriba guruhiga tanlab olindi. Tadqiqot boshida, ularning tezkorlik va kuch sifat ko'rsatkichlarini rivojlanganlik darajalarini aniqlash maqsadida sinov testlari olingandan so'ng, an'anaviy o'quv-mashg'ulot jarayonlariga kirishishdi. Olti oy davomida olib borilgan tadqiqotning natijalarini aniqlash maqsadida, tadqiqot oxirida nazorat guruhidagi kursantlardan takroriy tezkorlik va kuch sifatlarini takomillashish darajasini aniqlash uchun sinov testlari qayta olindi. Shu bilan birga, biz tomonimizdan olib borilgan ilmiy tadqiqotga 50 nafar kursantlar jalb etilgan, ularning 25 nafari nazorat guruhiga tanlab olindi. Tadqiqot boshida, ularning tezkorlik va kuch

sifat ko'rsatkichlarini rivojlanganlik darajalarini aniqlash maqsadida sinov testlari olingandan so'ng, an'anaviy o'quv-mashg'ulot jarayonlariga kirishishdi. Olti oy davomida olib borilgan tadqiqotning natijalarini aniqlash maqsadida, tadqiqot oxirida nazorat guruhidagi kursantlardan takroriy tezkorlik va kuch sifatlarini takomillashish darajasini aniqlash uchun sinov testlari qayta olindi.

Umumiy tayyorgarlik: 1-11, 20-25, 32-34. Mashg'ulotlarni mikrosikllarda olib borilishi: 1-kun – texnik-taktik tayyorgarlik (2 ch); 2-kun - jismoniy tayyorgarlik (2 ch); 3-kun – dam olish; 4-kun – texnik-taktik tayyorgarlik (2 ch); 5-kun – jismoniy tayyorgarlik, bellashuv (2 ch); 6-kun – dam olish; 7-kun – dam olish.

Maxsus tayyorgarlik: 12-16, 26-28, 35-37. Mashg'ulotlarni mikrosikllarda olib borilishi: 1-kun – texnik-taktik tayyorgarlik (2 ch); 2-kun – jismoniy tayyorgarlik (2 ch); 3-kun – dam olish; 4-kun – texnik-taktik tayyorgarlik (2 ch); 5-kun – bellashuvlar (2 ch); 6-kun – dam olish; 7-kun – dam olish.

Musobaqa oldi tayyorgarligi: 17 yoki 18, 29 yoki 30, 38 yoki 39. Mashg'ulotlarni mikrosikllarda olib borilishi: 1-kun – texnik-taktik tayyorgarlik (2 ch); 2-kun – texnik-taktik tayyorgarlik (2 ch); 3-kun – dam olish; 4-kun – bellashuvlar (2 ch); 5-kun – bellashuvlar (2 ch); 6-kun – dam olish; 7-kun – dam olish. Musobaqalar: 19, 31, 40. Musobaqa mikrosikllari 3-4 bellashuvlar va tiklanish mashg'ulotlari bilan olib borildi.

2-jadval

Harbiy xizmatdagi kursantlarni mezosikldan tashkil topgan soatlari va undagi tayyorgarlik turlarini foiz (%) hisobi

| T/ r | Tayyorgarlik turlari | Umumiy | Mashg'ulot olib boriladigan oylar | | | | | | | | | |
|---------|-----------------------|-----------------|--|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|
| | | | fevral | mart | aprel | may | iyun | iyul | avgust | sentabr | oktabr | noyabr |
| | | | <i>25-fevral kuni boshlab 40 hafta (280 kun) 1-dekabr kuni gacha olib borilgan</i> | | | | | | | | | |
| | | | 3 ta mash-g'ulot | 17 ta mash-g'ulot | 18 ta mash-g'ulot | 18 ta mash-g'ulot | 16 ta mash-g'ulot | 18 ta mash-g'ulot | 18 ta mash-g'ulot | 17 ta mash-g'ulot | 18 ta mash-g'ulot | 17 ta mash-g'ulot |
| | | 320 soat (100%) | 6 soat (100%) | 34 soat (100%) | 36 soat (100%) | 36 soat (100%) | 32 soat (100%) | 36 soat (100%) | 36 soat (100%) | 34 soat (100%) | 36 soat (100%) | 34 soat (100%) |
| 1 | Umumiy jismoniy | 35% | 50% | 30% | 30% | 30% | 30% | 30% | 30% | 30% | 30% | 30% |
| 2 | Maxsus jismoniy | 18% | 25% | 30% | 30% | 30% | 30% | 30% | 30% | 30% | 30% | 30% |
| 3 | Texnik-taktik | 29% | 25% | 30% | 30% | 30% | 30% | 30% | 30% | 30% | 30% | 30% |
| 4 | Nazariy va ruhiy | 8% | - | 3% | 3% | 3% | 3% | 3% | 3% | 3% | 3% | 3% |
| 5 | Tiklanish | 6% | - | 3% | 3% | 3% | 3% | 3% | 3% | 3% | 3% | 3% |
| 6 | Hakamlilik amaliyoti | 2% | - | 2% | 2% | 2% | 2% | 2% | 2% | 2% | 2% | 2% |
| 7 | Musobaqada qatnashish | 2% | - | 2% | 2% | 2% | 2% | 2% | 2% | 2% | 2% | 2% |

Sambo kurashchilarini 9 oy davomidagi 40 haftadan tashkil topgan soatlari va tayyorgarlik turlarining foiz hisobi quydagicha ifodalandi. Tadqiqot fevral oyidan boshlandi va mazkur oyda 3 ta o'quv-mashg'ulot o'tkazildi. Fevral oyiga ajratilgan 6 soatlik o'quv-mashg'ulot jarayoning 50%ni umumiy jismoniy tayyorgarlik, 25%ni maxsus jismoniy tayyorgarlik, 25%ni texnik-taktik tayyorgarlik tashkil etdi. Mart oyida 17 ta o'quv-mashg'ulotlar o'tkazildi. Mart oyiga ajratilgan 34 soatlik o'quv-mashg'ulot jarayonining 30%ni umumiy jismoniy tayyorgarlik, 30%ni maxsus jismoniy tayyorgarlik, 30%ni texnik-taktik tayyorgarlik, 3%ni nazoriy va ruhiy tayyorgarlik, 3%ni kurashchining tiklanish jarayoni, 2%ni bellashuvlardagi hakamlilik qilish qonun qoidalari, 2%ni musobaqada qatnashish va undagi bellashuv taktikalari tashkil etdi. Aprel oyida 18 ta o'quv-mashg'ulotlar o'tkazildi. Aprel oyiga ajratilgan 36 soatlik o'quv-mashg'ulot jarayonining 30%ni umumiy jismoniy tayyorgarlik, 30%ni maxsus jismoniy tayyorgarlik, 30%ni texnik-taktik tayyorgarlik, 3%ni nazoriy va ruhiy tayyorgarlik, 3%ni kurashchining tiklanish jarayoni, 2%ni bellashuvlardagi hakamlilik qilish qonun qoidalari, 2%ni musobaqada qatnashish va undagi bellashuv taktikalari tashkil etdi. May oyida 18 ta o'quv-mashg'ulotlar o'tkazildi.

